

**Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi, PhD Mahmudov
Dilshod taqrizi ostida**

Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-
kurs talabasi
Email:
bektoshevgiyosiddin03@gmail.com

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA AHOLINING ETNIK TARKIBI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr hamda qo'shni hududlarda yashagan aholining etnik tarkibi tahlil qilinadi. Temuriylar imperiyasi tarkibidagi turli xalqlar, ularning kelib chiqishi, etnik xilma-xilligi va ijtimoiy hayotdagi o'rni tadqiq etiladi. Shuningdek, Amir Temurning yurishlari va davlat siyosati natijasida aholi tarkibida yuz bergan o'zgarishlar, etnik guruhlarning o'zaro ta'siri hamda madaniy aloqalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, Nizomiddin Shomiy, Klavixo, Mo'g'ul etnonimi, etnoslar, sartlar, turklar, tojiklar, hunarmandlar.

Аннотация: В статье анализируется этнический состав населения, проживавшего в Моваруннахре и соседних областях в период правления Амира Темура и Тимуридов. Изучены различные народы империи Тимуридов, их происхождение, этническое разнообразие и роль в общественной жизни. Также освещены изменения в структуре населения в результате походов Амира Темура и государственной политики, взаимодействие этносов и культурные связи.

Ключевые слова: период Тимуридов, Низамидин Шами, Клавихо, монгольский этноним, этнос, сарты, тюрки, таджики, ремесленники.

Abstract: This article analyzes the ethnic composition of the population living in Movarounnahr and neighboring areas during the period of Amir Temur and Timurids. The various peoples of the Timurid Empire, their origin, ethnic diversity and their role in social life are studied. Also, the changes in the structure of the population as a result of Amir Temur's campaigns and state policy, the interaction of ethnic groups and cultural relations are covered.

Key words: Timurid period, Nizamiddin Shami, Claviho, Mongolian ethnonym, ethnoss, Sarts, Turks, Tajiks, artisans.

KIRISH:

Amir Temur va Temuriylar davri (XIV asr oxiri – XV asr) mintaqada tarixida muhim o'rinn tutadi. Bu davrda mintaqada siyosiy barqarorlik o'rnatilib, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot yuksaldi. Ayniqsa, Movarounnahr va Xuroson hududlarida turli etnik guruhlilar yashagan bo'lib, ularning o'zaro aloqalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan. Amir Temur asos solgan imperiya tarkibida turkiy, forsiy, arab, hind va boshqa ko'plab xalqlar mavjud edi. Ushbu etnik xilma-xillik davlat boshqaruvi, harbiy tuzilma, hunarmandchilik, savdo va madaniyat sohalarida o'z aksini topdi. Temuriylar davrida turli xalqlarning birgalikda yashashi va faoliyati natijasida madaniy almashinuv kuchayib, ilm-fan va san'at rivojlandi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR:

Amir Temur tarixi yoritilgan aksariyat manbalarda sarkardaning zafarli yurishlari, davrning siyosiy manzaralari aks etgan bo'lishiga qaramay, ularda qisman etnik ma'lumotlar ham o'rinn olgan. Forsiy manbalarda Movarounnahr aholisining umumiyl soni, guruhlarga bo'linish holati to'g'risida ma'lumotlar keltirilmagan. Ammo tarixiy voqealar bayonida etnoslarning nomlari, yashagan hududi, yetakchilari, ko'chirilgan yoki ko'chib o'tgan hududlari to'g'risida qaydlar mavjud. Manbalardagi etnik ma'lumotlar qisman aynan biror etnik guruh xususida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot (sulduzlar tumani, jaloyirlar joylashuvi va boshq.) bersa, aksariyat hollarda shaxs ismlari bilan birga keltiriladi (amir Muayyad arlot, amir Bayon sulduz va boshq.). Forsiy manbalarning barchasi ham Movarounnahr etnik manzarasini to'liq tiklash mumkin bo'lgan etnik ma'lumotlarni qamrab olmagan. Ayrim manbalarda etnik ma'lumotlar juda kam. Jumladan, G'iyosiddin Ali Yazdiy asarida Movarounnahr bilan bog'liq o'nga yaqin etnonimlar tilga olingan. Nizomiddin Shomiyda etnik ma'lumotlar birmuncha ko'proq bo'lib, yigirmaga yaqin etnonimlar aks etgan. Amir Temur davri keng qamrovda yoritilgan asar Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Movarounnahr bilan bog'liq o'ttizdan ortiq etnonimlar qayd etilgan. Muiniddin Natanziyning asari ham etnik ma'lumotlarga boy bo'lib, unda yigirmaga yaqin etnonimlar sanab o'tilgan. Temuriylar davrida yaratilgan yana bir qancha forsiy manbalarda Amir Temur davridagi etnik holat xususida ma'lumotlar mavjud.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR:

Amir Temur davri yoritilgan forsiy manbalarning aksariyatida harbiy-siyosiy jarayonlarda arlot, sulduz, barlos, jaloyir, nayman, keroyit, arkanut, qang'li, qavchin, dug'lot, nukuz, qipchoq, toyjiyut (toyjiut), apardiy, qo'ng'iroq, makrit, mang'it, bahrin, qishliq, arg'un, tag'ochi, axtachi, o'yrot, qiyot, qutchi (quchchi, qushchi), qozoq, turkman, uyg'ur, turk, tojik (tozik), Mo'g'ul, 110 yasovur, xazora, nekudar, arab, qora tatar, tatar kabi etnonimlar ko'p bor eslatilgan. Shuningdek, manbalarda ba'zi o'rindrarda aholiga nisbatan joy nomini qo'llash hollari ham uchraydi. Masalan: samarqandlik, xorazmlik va boshq. Forsiy manbalarda Movarounnahr aholisining asosi turku tojik iborasi bilan eslatiladi. Bu nom ba'zi o'rindrarda faqat o'troq aholiga nisbatan qo'llangan holatlar ham mavjud. Shuningdek, manbalarda turku tojik Mo'g'ulu tojik shaklida ham almashib kelgan.^[1] Muiniddin Natanziy amir Husaynning mag'lub etilishi voqealari bayonida "barcha amirlar va qolgan Mo'g'ulu tozik amir Husayndan dilgir bo'ldi", degan ma'lumotni keltiradi. Bu yerda XIV asr 60-70 yillarida mintaqqa harbiy-siyosiy hayotida muhim o'r'in tutgan amirlar va ularning qo'shini nazarda tutilmoqda. Unda qo'shindagi askarlar turkiy yoki Mo'g'ul etnik kelib chiqishga ega bo'lishidan qat'iy nazar Mo'g'ul etnonimi bilan ifodalangan. Shuningdek, manbalarda turk, tojik, Mo'g'ul etnonimlari alohida qo'llangan holatlar ham ko'p. Turk etnonimi manbalarda keng va tor ma'nolarda keltirilgan. Tor ma'noda biror qabilaning etnik kelib chiqishini ifodalasa, keng ma'noda xalqqa yoki qo'shingga nisbatan umumiyl nom sifatida qo'llangan. Tojiklar (tozik shaklida ham uchraydi) Movarounnahrning asosiy aholisi sifatida mintaqaning turli hududlarida, jumladan Buxoro, Samarqandda turkiy aholi bilan yonma-yon istiqomat qilgan.^[2] Manbalar va tadqiqotlarda Amir Temur qo'shinining asosini turkiy va Mo'g'ul xalqlari tashkil etgani, tojiklardan ham alohida bo'linmalar tuzilib, "Lashkari tojik" deb nomlangani to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Amir Temurning tojiklardan maxsus ayg'oqchilari bo'lgani va ular qo'shni davlatlardagi harbiy-siyosiy vaziyat xususida ma'lumot berib turgani "Zafarnoma"da eslatiladi. Bu davrda Farg'on, Toshkent va Xorazm aholisining katta qismi sart deb atalgan. Sart etnik nom bo'lmay, muqim yashovchi aholining yig'indi nomi bo'lgan.^[3] V.V. Bartoldga ko'ra, sart atamasini tojik ma'nosini beradi. Ammo sartlarning bir qismi kelib chiqishi turklashgan sug'diyilar bo'lgan. O'rta Osiyodan sharqiy o'lkalarga savdo uchun borganlar etnik mansubligidan qat'iy 111 nazar, sartlar deb atalgan. Mahmud Qoshg'ariy sart atamasini "savdogar" ma'nosida izohlagan. Bobur fors-tojik tilida so'zlashuvchi xalqlar sartlardir, deydi. Demak, sart atamasini bir xalqqa tegishli deb bo'lmaydi. Umumiy ma'noda sart

o’troq yashab, savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug’ullangan tojik va turkiylarga nisbatan qo’llangan.[4] Amir Temur istilo etgan mamlakatlardan, asosan, Old Osiyo mamlakatlaridan, bir guruh aholini Movarounnahrga ko‘chirib keladi. Klavixoning so‘rab olgan ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘chirib kelinganlar soni yuz mingdan oshiqroq bo‘lgan (Klavixonnig Movarounnahrga ko‘chirib kelinganlar haqidagi ma’lumotida ziddiyatlik mavjud: bir yerda ko‘chirib kelinganlar soni yuz mingdan oshiq deyilsa, ikkinchi yerda ularning soni ikki yuz mingdan oshiq deb ko‘rsatilgan). Ko‘chirib kelinganlar qatorida Klavixo arablarni, turklarni, armanlarni tilga oladi; eronliklar ham oz bo‘lmagan, albatta. Ko‘chirib kelinganlar asosan hunarmand – kosiblar, olim – fuzalolar va boshqalar bo‘lgan. Masalan, Damashqdan Amir Temur har xil ipakli matolarni to‘qiydigan hunarmandlarni, zardo‘zlarni, quruvchi – muhandislarni, tosh yo‘nuvchilarni, otish qurollarini yasaydigan ustalarni va shularga o‘xhash toifadagi hunarmandlarni ko‘chirib kelgan edi.[5] XV asrda o‘tgan tarixchi Fasih Xavofiyning qayd qilishicha, Xorazmdagi quruvchilar va hunarmand ustalar qatorida yurt oqsoqollari va bu yurtning nomdor kishilari ham ko‘chirilgan. Shahrisabzda qad ko‘targan Oq Saroy Xorazmdan ko‘chirib kelingan ustalar ko‘li bilan qurilgan. Ko‘chirib keltirilganlar asosan Samarcandga, uning atroflariga, hamda Zarafshon vohasining bir qancha boshqa rayonlariga joylashtirilgan edi. Movarounahr hududining etnik tarkibi har xil bo‘lgan bo‘lsa hamki, Amir Temur ularni birlashtirdi, barcha aholini jalb qilib mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini rivojlantirdi, davlatning siyosiy mavqeini jahon darajasiga ko‘tarishga erishdi.[6]

XULOSA:

Xulosa qilib aytish mumkinki, Temur va temuriylar davrida Movarounnahrda o’zbek ajdodlarining asosini turg’un yashovchi turk tilli aholi tashkil qilgan. Mazkur hududda yashovchi turk tilli aholining eron tilli aholi bilan asrlar davomida aralashib, qorishib kelishi jarayonida IX-X asrlarda, keyinchalik o’zbek nomini olgan, alohida xalq (elat) shakllanadi. O’zbek elatinining tarkibiga ilk o’rta asrlardagi turk tilli qabilalar ham qirgan. Bular, Temur va uning vorislari davrida ham qabila nomlarini va urug’-aymoqlarga bo‘linish tartibini saqlab qolish bilan birga, xo’jaliklardagi va moddiy madaniyatlaridagi ayrim xususiyatlarini ham saqlab qolgan edilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent, 1997.
2. Muiniddin Natanziy. Muntahab ut-tavorix. Toshkent, 2010.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent, 1996.
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. I-II, Toshkent, 1994.
5. B. Ahmedov. Amir Temur. Toshkent, 1996.
6. Muhammadjonov A. Amir Temur sultanati. Toshkent, 1996.